

O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna,
O'zMPU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Xalmuratova Dilorom Abdikarimovna,
O'zMPU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bolishi sabablari va bu yosh davridagi agressiv bolalarning belgilari keltirilgan.

Tayanch so'zlar: agressiya, o'smirlik davri, agressivlik sabablari, zo'ravonlik, ijtimoiy muhit, xulq-atvor.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРОЯВЛЕНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРАСТКОВ

Аннотация: В статье описаны причины агрессивного поведения у подростков и симптомы агрессивного поведения детей в этом возрасте.

Ключевые слова: агрессия, подростковый возраст, причины агрессии, насилие, социальная среда, поведение.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MANIFESTATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENT

Annotation: The article describes the causes of aggressive behavior in adolescents and the symptoms of aggressive children at this age.

Keywords: aggression, adolescent age, causes of aggression, violence, social environment, behavior.

Psixologiyada agressiya va agressiv xulq-atvor mavzusi doimo olimlar va amaliyotchi psixologlar nuqtai nazarida bo'lib kelmoqda. Ushbu hodisalarni tushuntiruvchi ko'plab nazariy tushunchalar mavjud, ko'plab eksperimental tadqiqotlar olib borilgan, psixoterapevtik maktablar agressiv xatti-harakatlar muammosiga duch kelib, uni tuzatish texnikasini ishlab chiqish ustida ish olib bormoqda. So'nggi yillar mobaynida butun dunyoda, ayniqsa MDH mamlakatlarida, zo'ravonlik harakatlarining o'sishi kuzatilmoqda. Odatda agressiya va agressiv xulq-atvor tushunchalari bilan bog'liq ijtimoiy-xavfli namoyishlar jiddiy tashvishga sabab bo'ladi. Shunday ekan, zo'ravonlik zahirida ham agressiv xulq-atvor ko'rinadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zi baho beradi.

O'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi turli faoliyatdagi erishgan yutug'iga ham bog'liq bo'ladi.

Bolalarda agressiv harakatlar ayniqsa, ularning o'tish davrida kuzatiladi. Ya'ni har qanday qiyin vaziyatda bolaning yosh krizisi muommalarga to'la bo'ladi. Zo'rovonlik tajovuz tushunchasi bilan chambarchas bog'liq, chunki bu uning asl namoyon bo'lish shakli tajovuzkorlikda ko'rinadi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik ijtimoiy hayotning turli sohalarida ayollarning tengsiz mavqeini mustahkamlovchi ijtimoiy-madaniy me'yorlarning natijasi sifatida qaraladu. Ushbu yondashuvning markaziy nuqtasi erkaklar jamiyatda hokimiyatni o'z qo'llariga olganligi, ular tomonidan ayollarning xatti-harakatlarini boshqarishga yo'l qo'yilganligida tushunish mumkin. Oiladagi zo'ravonlikning o'zi tarixiy va madaniy xarakterga ega bo'lib, jamiyatning bag'rikengligi nikohda erkaklar ustunligini qo'llab-quvvatlovchi patriarxal me'yorlarning ta'sirini aks ettiradi. [4]

Demak, oiladagi onaga bo'lgan zo'ravonlik bolalar xulqiga ta'sir qilib, ularda agressivlik namoyon bo'lishi mumkin ekan. Agressiv bola ota-onalar, o'qituvchilar uchun katta muammo bo'lib qolmoqda. Agressiv bolani belgilari quyidagicha bo'ladi:

- bola o'z so'zlarini, harakatlarini, his-tuyg'ularini, umuman xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydi. Kamdan kam hollarda u o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishga urinishi mumkin, ammo hech narsa chiqmaydi;
- bola ko'pincha tengdoshlari va kattalar bilan bahslashadi;
- o'yinchoqlarni buzadi, boshqalar tomonidan yaratilgan buyum, uy, binolarni yo'q qiladi;
- boshqalarning narsalarini buzishni yaxshi ko'radi va bundan zavq oladi;
- so'rovlarga, ko'rsatmalarga javob bermaydi va belgilangan qoidalarni buzadi;
- salbiy reaksiyaga olib kelishi uchun qasddan "yomon" harakatlar qiladi.

Bolalar uchun, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar itoatsizlik bilan ajralib turadi. Agar unda jiddiy sabab (adolatsiz jazo, haqorat) bo'lmasa, unda bolaning g'azabi va uning tajovuzi to'liq oqlanishi mumkin.

Ota-onalar farzandlarida muntazam ravishda (olti oydan boshlab) yuqorida aytib o'tilganlarning kamida bir nechta belgilarini ko'rsalar, maktab amaliyotchi psixologlariga uchrashlari kerak.

Rus psixologi A.T.Dolgova agressiyaning destruktiv shaklini ko'rib chiqib, agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishini belgilaydigan har xil o'z-aro bog'liq omillarni quyidagicha tushuntiradi: [1]

- individual omil – antiijtimoiy xulq-atvorning psixobiologik shartlari bolani muhitga moslashuvini qiyinlashtiradi;
- psixologik-pedagogik omil – maktab va oilaviy tarbiyadagi kamchiliklar;
- ijtimoiy-psixologik omil – bolaning atrofdagilar bilan ya'ni oliadagi yaqin insonlari, ko'chada, sinfda tengdoshlari bilan o'z-aro munosabatlarining yaxshi emasligi natijasida bolada agressivlik namoyon bo'ladi.

F.F.Rasulova tadqiqoti davomida o'quvchilar agressivligi sabablarini o'qituvchilar tomonidan tushunishning o'zgarish dinamikasining yuqori ahamiyatligini pedagoglar butun maktab yoshi (1-9 sinfgacha) davomida qayd etgan. Bunda ijtimoiy omillar: nomaqbul sharoit- janjallar, nazoratning yo'qligi, oilada bola bilan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lish, teleekranda zo'ravonlik saxnalarini tez-tez ko'rib turish bilan bog'liq bo'lgan. Mazkur sabablar ahamiyatligini bola rivojlanishining barcha yosh bosqichlarida invariant negativ ijtimoiy shart-sharoitlar sifatida qabul qilish mumkin. O'quvchilarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining yosh dinamikasini solishtirishda o'smirlik davridagi 5, 7, 9 sinf o'quvchilarida o'rganilgan. [3]

Bolani erta o'qish, yozish, sanashga o'rgatib uning bilish jarayonlari zo'riqtirilsa bolaning emotsional rivojlanishi uchun zarur bo'lgan miya energiyasining tanqisligiga sabab bo'ladi. Natijada bolalarning emotsional jarayonlarning rivojlanishida yoki fizik jihatdan rivojlanishida kamchiliklar yuz beradi. Bunday vaziyatda energiya taqsimlanishining majburiy buzilishi ro'y berib, u 7-8 yoshli bolalarni qo'rquv, agressivlik yoki giperaktivlik vaziyatlariga olib keladi.[2] Shuni ta'kidlash lozim, kichik maktab yosh davrida agressivlik bolani erta o'qishga berish natijasida kelib chiqishi mumkin.

K.S.Shalaginova 2003-2007 yillar davomidagi tadqiqot ishida "Agressivlik" tushunchasini ilimiy asoslab beradi va u boshlang'ich maktab yoshidagi agressivlik namoyon bo'lishining to'rt darajasiga xos xususiyatni keltiradi: nol darajada - g'ayritabiiy agressivlik yo'qolgan, birinchi darajada – agressivlik asosan hissiy-irodaviy sohada, ikkinchi darajada – intellektual soha hukmronlik qiladigan hissiy-irodaviy sohada, uchinchi daraja – hissiy-irodaviy, intellektual, faoliyat soha hukmronlik qiladigan darajalarga ajratgan. Tadqiqot natijasida kichik maktab yoshidagi agressiv o'quvchilarni tizimli psixologik qo'llab-quvvatlash modelini ishlab chiqqan, bu o'zaro bog'liq uchta komponent mavjudligini nazarda tutadi:

- 1) nazariy, shu jumladan tadqiqot ishiga tegishli kategoriya apparati ta'rifi;
- 2) amalga oshirishni o'z ichiga olgan empirik 1 (maktab) toifali apparatni aniqlash, diagnostika va tuzatishni amalga oshirishda tizimli yondashuv sharoitida ishlab chiqilgan agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilariga tizimli psixologik yordam;
- 3) empirik 2 komponentida agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilariga tizimli psixologik yordam ko'rsatishni amalga oshirishda bo'lajak ta'lim psixologlarini kasbiy tayyorlash uchun o'quv-uslubiy asosni (ixtiyoriy kurs misolida) ishlab chiqish vazifasini qo'yadi.[5]

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib o'smirlik davridagi o'quvchilarda agressivlik quyidagi hollarda namoyon bo'ladi:

- oiladagi oila a'zolariga va bolaning o'ziga bo'lgan zo'ravonlik harakatlari;
- bolaning kino, multfilm, teleefirlardagi tajovuzkorlik harakatlarini muntazam ko'rishi natijasida;
- bola o'zi hali ,aktab ta'limiga tayyor bo'lmasdan, uni erta o'qish, yozish, sanashga o'rgatish natijasida;

- tajovuzkor munosabatda bo'ladigan ijtimoiy muhit davrasidagi bolada agressivlik namoyon bo'ladi. Ya'ni tengdoshlari, do'stlarining unga nisbatan muntazam tajovuz munosabati ham bolaga ta'sir qilib unda agressivlikni paydo qiladi.

Bolalar hayotida agressiv xulq-atvor tez-tez uchrab turadi. Ulg'ayib kelayotgan bolalarda psixologik holatlar kechishiga vaqtida e'tibor berilmasa sa'lbiiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Долгова.А.Г. Агрессия у детей младшего школьного возраста. Диагностика и коррекция. – М.:Генезис, 2009. 6-стр.
2. Nishanova.Z.T, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullaeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya", Toshkent-2019, 208-b.
3. Rasulova.F.F. "O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari". Psixologiya fanlari bo'yicha Phd falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi, 2018, 63-b.
4. Tovbayeva.M.S. Oiladagi gender munosabatlarda zo'ravonlik ijtimoiy normalarning aksi sifatida "Maktab va hayot" jurnali, №1(57) 2021, 13-bet
5. Шалагинова.К.С. Системное психологическое сопровождение агрессивных младших школьников. Автореф. дисс.. канд.психологических наук: 19.00.07/ Москва – 2008. С-5-6.